



## CHARACTERISTICS OF ASSOCIATIVE MEANING OF THE WORD

**D. Lutfullayeva**

DSc on philology., prof.

International Islamic Academy of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14160286>**ARTICLE INFO**Received: 06<sup>th</sup> November 2024Accepted: 13<sup>th</sup> November 2024Online: 14<sup>th</sup> November 2024**KEYWORDS**

Association, linguistic  
association, associative  
meaning, Uzbek lexeme  
associations, free associative  
experience.

**ABSTRACT**

This article revealed the associative meaning of the Uzbek lexeme. The dictionary and associative meanings of this word were described based on an associative experiment conducted on Uzbek speakers. On the basis of associative experience, it was proved that the meanings of words occur in the associations of language owners.

## SO'ZNING ASSOTSIATIV MA'NO XUSUSIYATI

**D.Lutfullayeva**

filol.fan., dok.,prof.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14160286>**ARTICLE INFO**Received: 06<sup>th</sup> November 2024Accepted: 13<sup>th</sup> November 2024Online: 14<sup>th</sup> November 2024**KEYWORDS**

Assotsiatsiya, lisoniy  
assotsiatsiya, assotsiativ ma'no,  
o'zbek leksemasi  
assotsiatsiyalar, erkin  
assotsiativ tajriba.

**ABSTRACT**

Ushbu maqolada o'zbek leksemasining assotsiativ ma'no xususiyati ochib berildi. O'zbek tili egalari ustida o'tkazilgan assotsiativ tajriba asosida ushbu so'zning lug'aviy va assotsiativ ma'nolariga tavsif berildi. Assotsiativ tajriba asosida so'z ma'nolarining til egalari assotsiatsiyalarida voqelanishi dalillandi.

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida insonning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlari uning assotsiatsiyalari orqali voqelanishi masalasini o'rghanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammo doirasida inson bilim va tasavvurlarini tilda aks ettiruvchi lisoniy assotsiatsiyalar mohiyatini ochib berish, assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga turtki beruvchi omillarni aniqlash, assotsiativ birliklarning lingvistik xususiyatlarini yoritish, ularda inson omilining roliga baho berish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Ma'lumki, inson biror bir voqelikni tilda tasvirlar ekan, ushbu voqelik bo'yicha o'zida hosil bo'lgan assotsiatsiyalariga ham murojaat qiladi. Deylik, til egasi atirgulga tavsif bermoqchi. U, avvalo, atirgul bo'yicha o'zida mavjud bo'lgan bilim va tasavvurlari (atirgulning qanday o'simlik ekanligi, qayerda o'sishi, rangi, hidi, atirgul unda qanday tasavvurlar hosil



qilishi kabilar)ga tayanadi. Atirgul haqidagi ushbu bilim va tasavvurlar har bir til egasida turli assotsiatsiyalarni yuzaga keltirishi tabiiy. Bunday assotsiatsiyalar til egalarining atirgulga tavsif berishlarida muhim o'rinn tutadi. Atirgul bo'yicha hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar har bir til egasida bir-biridan farqlanishi sababli unga berilgan tafsiflar ham turlicha bo'ladi. Bu holat tashqi olamning tilda voqelanishi muammosi tadqiqida inson assotsiatsiyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tilshunosligimizda so'nggi yillarda til birliklari, matnning assotsiativ xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqot ishlari amalga oshirildi<sup>1</sup>. Shunga qaramay, bu sohada tadqiq etilishi lozim bo'lgan qator dolzarb muammolar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, so'zning lug'aviy ma'nolarini tasvirlashda uning assotsiativ ma'nolarini ham yoritish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi. Ushbu muammo tadqiqi so'zlarning assotsiativlik xususiyatini ochib berishga xizmat qilishi bilan birga, jamiyat a'zolarining so'z ma'nolarini bilish darajasini tasvirlashga ham xizmat qiladi.

Ma'lumki, so'zning assotsiativ ma'nolarini aniqlashda assotsiativ tajriba metodi doimo samarali hisoblangan. Muayyan bir so'zning ma'nolarini aniqlashda shu so'z bo'yicha kishilarda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarga murojaat qilinadi. Insonda bunday assotsiatsiyalar so'zni eshitish yoki o'qish orqali idrok etilishi natijasida hosil bo'ladi. Assotsiatsiyalarga turtki beruvchi so'z inson tomonidan idrok etilgandagina assotsiatsiya obyektiga aylanadi. Anglashiladiki, muayyan so'zning til egalari tomonidan idrok etilgan ma'nolarini aniqlashda assotsiativ tajriba metodi ahamiyatlidir.

N.V. Ufimseva assotsiativ tajribada olinadigan materiallarni o'rganish nihoyatda muhimligi haqida asosli xulosalarni keltiradi. Uning fikricha, assotsiativ reaksiyalarni o'rganishning birinchi afzal jihat shundaki, assotsiatsiyalar tilning lug'at tarkibi semantik strukturasiga (aniqrog'i, til egalari lug'at boyligi bilan) muvofiq keladi. Assotsiativ reaksiyalarni o'rganishning ikkinchi afzalligi ularning so'zning lisoniy sintagmatik bog'lanishlari bilan shartlanganlidir. Javob reaksiyalari asosida so'zlarning nutqda birga qo'llanishi, nutqiy sintagmatika haqida, bundan tashqari, erkin assotsiativ tajribada so'zlarning taqsimlanish qonuniyatları va nutq oqimida nihoyatda yaqin holatda bo'lishi ehtimoli xususida fikr yuritish mumkin. Assotsiativ reaksiyalarni o'rganishning uchinchi afzalligi bu materiallarga muayyan madaniyat va til uchun xarakterli bo'lgan ong obrazining "assotsiativ profili" sifatida qarash mumkinligidir. Ular muayyan etnos egallagan aqliy va hissiy bilimlarni birlashtiradi"<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, assotsiativ tajriba orqali so'zlarning assotsiativ ma'nolarini, qanday so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishuvini aniqlash mumkin. Assotsiativ tajriba metodi turli

<sup>1</sup> Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.; Tajiboyev B. O'zbek tilida so'zning assotsiativ ma'no strukturasi. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2021. – 108 б.; Ортиқова X. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 136 б.; Rahmonov H. Omon Matjon she'riy matnlarining assotsiativ strukturasi: Filol. fan. bo'yicha fals. fan. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qo'qon, 2023. – 57 б.

<sup>2</sup> Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, украинский / под ред. Н. В. Уфимцевой, Г. А. Черкасовой, Ю. Н. Карапулова, Е. Ф. Тарасова. – М., 2004. – С.5.



tillardagi leksik birliklarning "madaniylik" belgisini, so'zga xos semantik aloqalarni, uning "semantik obertonlari"ni ochib berishda ham muhim ahamiyatga ega.<sup>3</sup>

Shu jihatdan, o'zbek tili egalarining *o'zbek* leksemasi ma'nolarini bilish darajasini aniqlash maqsadida ular ustida erkin assotsiativ tajriba o'tkazildi. Tajribaga o'zbek millatiga mansub hamda o'zbek tilida so'zlashuvchi jami 364 ta sinaluvchi jalb etildi. Ulardan 290 tasi 18-26 yoshlardagi talabalar, 74 tasi 30-74 yoshlardagi pedagoglar jamoasidir. Assotsiativ tajriba materiallari *o'zbek* leksemasining ma'nolarini tasvirlashga xizmat qildi.

Assotsiativ tajribani o'tkazishdan oldin sinaluvchilarga tajribaning mohiyati, maqsadi, amalga oshirish tartibi haqida ma'lumot berildi. Assotsiativ tajribada qatnashishning ixtiyoriy bo'lishi, hech qanday sinaluvchi o'z ustida tajriba o'tkazishga majburlanmasligi, tajriba natijalari jamoaga oshkor qilinmasligi, jamoada tahlil qilinmasligi, tajriba jarayonida sinaluvchilarga ruhiy, ma'naviy ta'sir ko'rsatilmasligi tushuntirib o'tildi. So'ngra sinaluvchilar tajribaga tayyorlandi, ularda turtki so'z ta'sirida xotirasida tiklanadigan til birliklarini aniqlash ko'nikmasi hosil qilindi. Shundan so'ng assotsiativ tajriba jarayoni boshlandi.

Tajribani o'tkazishda sinaluvchilarga quyidagi topshiriq berildi: "*Tajriba o'tkazuvchi tomonidan sizga o'qib eshittirilgan so'z (o'zbek so'zi)ni idrok etishingiz bilan 30 sekund ichida bu so'z turtkisi ta'sirida xotirangizda tiklangan birinchi so'zni so'rovnomaga qayd eting*".

Assotsiativ tajriba o'tkazilgach, olingan materiallar kompyuterda jamlandi hamda statistik tahlil qilindi. Javob reaksiyalarining umumiyligi soni aniqlandi. Sinaluvchilar tomonidan berilgan bir xil va turli mazmundagi javob reaksiyalarini aniqlandi. Takrorlangan hamda yakka xarakterdagi javob reaksiyalarining soni belgilandi. So'ngra tajriba natjalari umumlashmasi asosida *o'zbek* leksemasining til egalari assotsiatsiyalariga asoslangan quyidagi assotsiativ maydoni hosil qilindi.

**O'zbek:** millat **25**; o'ziga bek **13**; ona yurt **10**; o'zbek sportchilari **9**; mehmondo'st xalq **8**; millatim **8**; shirinso'z xalq **8**; milliylik **7**; tug'ligan joy **7**; atlas **6**; atlas kiygan qiz **6**; do'ppi **6**; xalq **6**; Vatanim **5**; mehmondo'st **5**; mehnatkash **5**; mehribon **5**; mustaqil **5**; bayroq **4**; Vatan himoyachilari **4**; odam **4**; o'zim **4**; bodom nusxali do'ppi **3**; do'ppi **3**; do'ppi kiygan odam **3**; mehribon xalq **3**; milliy urf-odatlar **3**; mustaqillikka erishgan xalq **3**; oilam **3**; osh **3**; qizi **3**; so'zlashuv tili **3**; til **3**; xalqim **3**; o'zligimiz **3**; ayol **2**; bolajon **2**; boshida do'ppisi bor inson **2**; Islom Karimov **2**; milliy liboslar **2**; muhabbat **2**; Navro'z bayrami **2**; o'z tiliga ega xalq **2**; o'zbek tilida so'zlashuvchi xalq **2**; or-nomus **2**; paxta **2**; tinch yurt **2**; turkiylar **2**; to'y **2**; O'zbekiston **2**; o'ziga bek xalq **2**; g'ururli xalq **2**; adabiyot **1**; aholisi musulmon **1**; andisha **1**; atlas do'ppi **1**; Avloniy **1**; ayolning boshidagi do'ppisi va egnidagi libosi **1**; avvonda o'tirgan qari onaxon **1**; bek **1**; beqasam to'n **1**; beshik **1**; birdamlik **1**; bolajon xalq **1**; buyuk **1**; Buyuk kelajak uchun harakatdamiz **1**; dehqon **1**; dehqon bobo **1**; do'ppi, milliy liboslar **1**; do'ppi, to'n, to'y marosimi **1**; do'ppi, to'n, beshik **1**; do'ppi kiygan **1**; do'ppi kiygan samimiy inson **1**; do'ppi kiygan sochlari o'rilgan qiz **1**; do'stona xalq **1**; do'ppi kiygan oq soqolli bobolar **1**; egoist **1**; erkinlik **1**; etnik turfa insonlar **1**; farzandim **1**; farzandimning kulgusi **1**; Farg'ona kiyimli navqiron yigit **1**; faxr **1**; ibo-hayo **1**; iffat **1**; iroqi do'ppi **1**; islom diniga sig'inuvchi shaxs **1**; islom dinini tan olgan inson **1**; jamiyat **1**; jangda mardlik ko'rsatgan bobolarimiz **1**; jannati insonlar yashovchi millat **1**; ketmon **1**; kindik qonim to'kilgan yurt **1**; ko'pkari **1**;

<sup>3</sup> Qarang: Леонтьев А.А. Общие сведения об ассоциациях и ассоциативных нормах // Словарь ассоциативных норм русского языка. – М.: МГУ, 1977. – С.14.



korrupsiya **1**; lo'x **1**; mard **1**; Marg'ilon **1**; mas'uliyatli **1**; mehnatkash xalq **1**; mehmondo'stlik **1**; mehr, oqibat, totuvlik **1**; mehrli musulmon **1**; mehrli, oqibatli **1**; men **1**; men o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida o'qiyman **1**; mening millatim **1**; millat, milliy yuksalish **1**; millat, xalq **1**; millatni asrab-avaylash **1**; milliy an'ana **1**; milliy atlas matosi **1**; milliy kiyim **1**; milliy kiyingan yigit **1**; milliy libosli qiz **1**; milliy qadriyat **1**; milliy qadriyatlar **1**; milliy raqslar **1**; milliy urf-odat **1**; milliyona millatimiz **1**; mustaqillik **1**; musulmon **1**; musulmonlar **1**; musulmon odam **1**; oddiy, samimiy qiz bola **1**; ollyjanob **1**; ona tilimiz **1**; ota-onas **1**; pahlavon o'g'llarim **1**; palov **1**; piyola **1**; qadimdan yashab kelayotgan millat **1**; qalampir nusxali do'ppi **1**; qarindoshchilik **1**; qat'iyat **1**; qo'l ushlashib turgan milliy kiyimli yigit va qiz **1**; qirg'iz **1**; qishlog'im **1**; qo'shiq **1**; qoni **1**; sabr **1**; samimiy **1**; samimiy ayol **1**; samimiy, oddiy ayol **1**; saxiy **1**; sodda odam **1**; sodda, ishonuvchan millat **1**; sodda samimiy ayol **1**; sochi mayda o'rilgan qizaloq **1**; sumalak **1**; tandir **1**; tarixiy yodgorliklar **1**; tilshunoslik **1**; tinchlik-totuvlik **1**; Toshkent **1**; to'y, paxta, maysazor **1**; turkiy sodda xalq **1**; turmush o'rtog'im **1**; urf-odat **1**; Vatanni sevmoq iymondandir **1**; vatanparvarlik **1**; xalq, millat **1**; yaktak **1**; yaxshi **1**; O'zbekiston diyori **1**; o'zbek millati xor bo'lmas **1**; o'zbek yigit **1**; o'zbekcha bichimdag'i atlas ko'yak **1**; O'zbekistonning xaritadagi geografik yer maydoni **1**; O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov **1**; O'zbekistonimiz tinchligi **1**; o'zbekligimdan faxrlanaman **1**; o'zbekman **1**; o'ziga xo'jayin **1**; o'zining hayoti qolib, boshqalarning hayotiga qiziquvchi odam **1**; o'zligim **1**; o'zligiga ega millat **1**; o'zlik, xalq **1**; g'iybatchilar **1**; g'ururim **1**; sharqona tarbiya ko'rgan insonlar **1**; chet elda yurgan hamyurtlarimiz **1** (**382+202+53+149+0**)

Assotsiativ maydon dunyo tilshunoslari tomonidan turli tillarning assotsiativ lug'atini yaratishda qo'llab kelinayotgan tamoyillar asosida shakllantirildi. Bunda assotsiatsiyalar assotsiativ maydonga takrorlanish chastotasiga qarab yuqoridan quyiga tomon joylashtirildi. Assotsiatsiyalarning takrorlanganlik, yakkalik belgisiga oid qaydlar javob reaksiyalari oxirida qora rangda ajratib ko'rsatildi. Assotsiativ maydonda bir xil miqdorda takrorlangan hamda yakka xarakterdagi javob reaksiyalari ichki alifbo asosida joylashtirildi. Maydon oxirida assotsiatsiyalarning miqdoriy ko'rsatkichlari qayd etildi.

Mazkur assotsiativ maydon orqali *o'zbek* so'zining lingvistik xususiyatlari bo'yicha muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Y.N. Karaulov qayd etganidek, "assotsiativ maydon insonning nafaqat verbal xotirasi (bilimlari), tildagi semantik va grammatik munosabatlar fragmentidir, balki ongdagi obrazlar, u yoki bu madaniyat egalarining motivlari va bahosi fragmenti ham hisoblanadi<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, *o'zbek* leksemasining assotsiativ maydonidan o'rin olgan javob reaksiyalari orqali quyidagi bilimlarga ega bo'lish mumkin:

1) lingvistik bilimlar: *o'zbek* leksemasining leksik-semantik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, til birlklari bilan paradigmatic, sintagmatik, assotsiativ aloqalari aniqlanadi;

2) ekstralolingvistik bilimlar: sinaluvchilarning *o'zbeklar* haqidagi bilim va tasavvurlari, ularga bo'lgan munosabati, ongida hosil bo'lgan millatning obraz-qiyofasi (assotsiativ portreti) aniqlanadi.

Quyida assotsiativ maydon birliklarining *o'zbek* leksemasining ma'no qirralarini ochib berishi masalasini tahlil qilamiz.

<sup>4</sup> Карапулов Ю. Н.Показатели национального менталитета в ассоциативно-вербальной сети // Языковое сознание и образ мира. – М.: Ин-т языкоznания РАН, 2000. – С. 191-206.



Ma'lumki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *o'zbek* leksemasining quyidagi ma'nolari qayd etilgan:

**O'ZBEK 1** O'zbekiston Respublikasi tub aholisi (xalqi)ning nomi. *O'zbek xalqi. O'zbek millati.*

2 Shu xalq (millat)ga tegishli, mansub. *O'zbek xonadoni. O'zbek tili. O'zbek latin alifbosi*<sup>5</sup>.

Assotsiativ maydonda *o'zbek* leksemasining ushbu ma'nolarini olib beruvchi javob reaksiyalari ko'pchilikni tashkil qildi. Sinaluvchilar tomonidan bu leksemaga berilgan millat (25), mehmondo'st xalq (8), millatim (8), shirinso'z xalq (8), xalq (6), mehribon xalq (3), mustaqillikka erishgan xalq (3), xalqim (3), g'ururli xalq (2), o'z tiliga ega xalq (2), o'zbek tilida so'zlashuvchi xalq (2) o'ziga bek xalq (2), turkiylar (2), bolajon xalq (1), do'stona xalq (1), jannati insonlar yashovchi millat (1), mening millatim (1), millat, xalq (1), milliyona millatimiz (1), o'zligiga ega millat (1), qadimdan yashab kelayotgan millat (1), turkiy sodda xalq (1), xalq, millat (1) javob reaksiyalari *o'zbek* leksemasining, avvalo, "**millat, xalq**" tushunchasini anglatishini ko'rsatadi. Javob reaksiyalari *o'zbek* leksemasining "millat, xalq" ma'nosini shunchaki qayd etmaydi, balki bu millatga xos xususiyatlar (*mehmondo'st xalq, shirinso'z xalq, mehribon xalq, mustaqillikka erishgan xalq, g'ururli xalq, o'z tiliga ega xalq, o'ziga bek xalq, jannati insonlar yashovchi millat, milliyona millatimiz, qadimdan yashab kelayotgan millat* kabilalar)ga ham aniqlik kiritadi.

Shunisi xarakterlikni, sinaluvchilar tomonidan berilgan qator javob reaksiyalarida *o'zbek* leksemasining ikkinchi "**o'zbek xalqiga tegishli, mansub**" ma'nosining "*o'zbek xalqiga tegishli, mansub yurt*" qirrasi voqelangan. Xususan, ona yurt (10), tug'ligan joy (7), Vatanim (5), O'zbekiston (2), tinch yurt (2), kindik qonim to'kilgan yurt (1), Marg'ilon (1), O'zbekiston diyori (1), Toshkent (1) javob reaksiyalarida *o'zbek* leksemasining "**o'zbek xalqiga tegishli, mansub yurt**" ma'no qirrasi reallashgan.

Quyidagi javob reaksiyalarida *o'zbek* leksemasining "*o'zbek xalqiga tegishli, mansub*" ma'nosiga aniqlik kirituvchi "**o'zbek xalqiga tegishli, mansub milliy qadriyatlar**" semasi voqelangan: atlas (6), do'ppi (6), bayroq (4), atlas, do'ppi (3), bodom nuxsali do'ppi (3), milliy urf-odatlar (3), so'zlashuv tili (3), til (3), milliy liboslar (2), Navro'z bayrami (2), or-nomus (2), andisha (1), atlas do'ppi (1), beshik (1), birdamlik (1), do'ppi, milliy liboslar (1), do'ppi, to'n, to'y marosimi (1), do'ppi, to'n, beshik (1), ibo-hayo (1), iffat (1), iroqi do'ppi (1), ko'pkari (1), millatni asrab-avaylash (1), milliy an'ana (1), milliy atlas matosi (1), milliy kiyim (1), milliy qadriyat (1), milliy qadriyatlar (1), milliy raqslar (1), milliy urf-odat (1), mustaqillik (1), yaktak (1), ona tilimiz (1), qalampir nuxsali do'ppi (1), qat'iyat (1), tinchlik-totuvlik (1).

Quyidagi javob reaksiyalarida *o'zbek* leksemasining "*o'zbek xalqiga tegishli, mansub*" ma'nosining yana bir qirrasi "**o'zbek millatiga mansub inson**" semasi reallashgan: *o'zbek* sportchilari (9), boshida do'ppisi bor inson (2), Islom Karimov (2), Avloniy (1), ayvonda o'tirgan qari onaxon (1), do'ppi kiygan (1), do'ppi kiygan samimiy inson (1), do'ppi kiygan sochlari o'rilgan qiz (1), do'ppi kiygan oq soqolli bobolar (1), Farg'ona kiyimli navqiron yigit (1), chet elda yurgan hamyurtlarimiz (1), jangda mardlik ko'rsatgan bobolarimiz (1), *o'zbek* yigit (1), O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov (1), *o'zbekman* (1). Ushbu

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. 5-жилд. – Б.135.



javob reaksiyalari *o'zbek* leksemasi lug'aviy ma'nosining "o'zbek millatiga mansub inson" ma'no qirrasini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi.

Assotsiativ maydonda jamiyat (1) javob reaksiyasi ham uchradi. Ushbu assotsiatsiya *o'zbek* leksemasining yana bir ma'no qirrasi ("biror bir faoliyat turini hamkorlikda amalgalashishiga kishilar uyushmasi, guruhi") haqida ma'lumot beradi. Xarakterli jihat shundaki, *o'zbek* leksemasining ushbu ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilmagan. Bu ma'no so'zning assotsiativ ma'nosi bo'lib, bir sinaluvchi assotsiatsiyasida voqelangan.

Tahlillardan anglashiladiki, *o'zbek* leksemasi assotsiativ maydonidan o'rinn olgan javob reaksiyalari ushbu so'zning lug'aviy ma'nolarini atroflicha ochib berishga, uning lug'atlarda aks etmagan assotsiativ ma'no qirralarini aniqlashga yordam beradi. Xarakterli jihat, mazkur javob reaksiyalari *o'zbek* leksemasining lug'aviy ma'nosini tashkil qiluvchi semik komponentlar mohiyatiga aniqlik kiritishga xizmat qiladi.